



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2024- YIL
YANVAR-FEVRAL**



2023- yilning yanvar-fevral oylarida Buxoro viloyatida jami **842,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **114,4 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2024- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 412

Bino va inshootlar
qurish

480

Fuqarolik obyektlarini
qurish

684

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 92,3 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 54,8 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,5 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 134,1 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,6 foiz ulushni va 87,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.03.2023- y.	01.03.2024- y.	
Buxoro viloyati	2 791	2 576	92,3
Buxoro shahri	963	814	84,5
Kogon shahri	129	104	80,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	80	75	93,8
Buxoro	220	185	84,1
Vobkent	131	119	90,8
G'ijduvon	198	145	73,2
Kogon	132	137	103,8
Qorako'l	92	110	119,6
Qorovulbozor	55	53	96,4
Peshko'	147	172	117
Romitan	224	249	111,2
Jondor	223	208	93,3
Shofirkon	197	205	104,1



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (31,5)



Romitan t. (9,7)




Jondor t. (8,1)



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. soʻm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	842,9	133,5	595,6	113,8
shahar:				
Buxoro sh.	215,5	11,7	181,3	22,5
Kogon sh.	38,9	21,2	13,8	3,9
tuman:				
Olot	59,4	20,9	32,7	5,8
Buxoro	50,6	0,7	40,1	9,8
Vobkent	24,4	0,5	14,8	9,1
Gʻijduvon	58,8	-	45,5	13,3
Kogon	35,1	1,6	27,2	6,3
Qorakoʻl	46,6	4,1	37	5,5
Qorovulbozor	43,7	30,5	9,6	3,6
Peshkoʻ	43,8	-	35,1	8,7
Romitan	92,3	39,6	41,7	11
Jondor	81,4	-	74	7,4
Shofirkon	52,4	2,7	42,8	6,9





2024- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 133,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilning mos davriga nisbatan 124,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi koʻrsatkich darajasidan 1,3 % punktga koʻpayib, 15,8 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 69,8 % i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,6%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 54,6% i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 196,0 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,3 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,1% ni tashkil etgan holda 595,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



70,7

2024-yil
yanvar-fevral

71,3

2023-yil
yanvar-fevral



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jondor tumanida (73,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 90,9 %), Buxoro shahrida (181,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 84,1 %) va Shofirkon tumanida (42,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 81,7 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **13,5 %** ni tashkil etdi yoki **113,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **110,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **30,4 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **812,5 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,6 %** va **96,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yil
yanvar-fevral



2024- yil
yanvar-fevral



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-fevral oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **50,2 %** i yoki **422,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

13,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **57,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **13,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **283,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,2 %** ni tashkil etdi.

67,2 %

19,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **81,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **19,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	842,9	114,4	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	215,5	112,5	25,6
Kogon sh.	38,9	152,1	4,6
<i>tuman:</i>			
Olot	59,4	109,1	7,0
Buxoro	50,6	103,7	6,0
Vobkent	24,4	134,4	2,9
G'ijduvon	58,8	109,6	7,0
Kogon	35,1	67,8	4,2
Qorako'l	46,6	123,5	5,5
Qorovulbozor	43,7	100,8	5,2
Peshko'	43,8	103,6	5,2
Romitan	92,3	177,2	10,9
Jondor	81,4	117,1	9,7
Shofirkon	52,4	109,3	6,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,4 % ni tashkil etib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 70,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamayib, 21,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,1 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,9 % (2,2 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2023- yil
yanvar-fevral



2024- yil
yanvar-fevral

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi va 35,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 64,9 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi.

ulushi % da

38,9

2023- yil
yanvar-fevral

2023- yil
yanvar-fevral

61,1

35,1

2024- yil
yanvar-fevral

2024- yil
yanvar-fevral

64,9

*Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi*

*Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	842,9	534,4	162,4	146,1
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	215,5	152,7	38,8	24
Kogon sh.	38,9	12,6	22,4	3,9
<i>tuman:</i>				
Olot	59,4	31,6	7,0	20,8
Buxoro	50,6	30,4	8,4	11,8
Vobkent	24,4	19,3	2,9	2,2
G'ijduvon	58,8	40,6	4,5	13,7
Kogon	35,1	17,9	8,3	8,9
Qorako'l	46,6	31,5	9,5	5,6
Qorovulbozor	43,7	3,7	3,4	36,6
Peshko'	43,8	33,1	5,8	4,9
Romitan	92,3	66,1	23,3	2,9
Jondor	81,4	60,5	12,6	8,3
Shofirkon	52,4	34,4	15,5	2,5



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	4 838,7	105,7
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	1 688,8	83,5
Kogon sh.	614,0	79,6
<i>tuman:</i>		
Olot	2 960,7	2,0 m.
Buxoro	2 583,7	2,4 m.
Vobkent	918,1	188,6
G'ijduvon	359,3	50,5
Kogon	2 995,9	60,5
Qorako'l	2 062,5	88,7
Qorovulbozor	2 137,4	34,6
Peshko'	321,6	29,1
Romitan	5 304,5	119,3
Jondor	686,5	135,2
Shofirkon	231,9	50,0



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2024- yil yanvar-fevral uchun**



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Romitan tumani — 5 304,5 ming so'm (yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 119,3 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 2 995,9 ming so'm (yoki 60,5 %), Olot tumani – 2 960,7 ming so'm (yoki 2,0 m. %), Buxoro tumani – 2 583,7 ming so'm (yoki 2,4 m.) Qorovulbozor tumani – 2 137,4 ming so'm (yoki 34,6 %) va egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**